



MUSTAQILLIK YILLARIDA URF-ODATLAR VA MILLIY QADRIYATLARNING TIKLANISHI: TARIXIY TAHLILI

Umarova Nafisa Najmitdinovna

Navoiy viloyati Karmana tuman 2- sonli politexnikum

*“Ijtimoiy-gamanitar fanlar kafedrasi”
ona-tili vaadabiyot fani o’qituvchisi.*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada O’zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishganidan so’ngi dastlabgi yillarida milliy urf-odatlar va qadriyatlarning tiklanish jarayonlari tahlil qilingan. Sovetlar mafkurasi natijasida unut bo’lgan yoki taqiqlangan qadimiy an’analarimiz, diniy bayramlar, milliy liboslar, marosimlar va urf-odatlar mustaqillikdan so’ng qayta tiklana boshladi. Maqolada davlat siyosatining qadriyatlarni tiklashdagi roli, yillik tarixiy voqealar, huquqiy hujjatlar, jamiyat hayotidagi o’zgarishlar va ularning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati yoritilgan.*

Kalit so’zlar: Mustaqillik, milliy qadriyat, urf-odat, tarixiy xotira, diniy erkinlik, madaniy meros, o’zlikni anglash, davlat siyosati.

ВОССТАНОВЛЕНИЕ ОБЫЧАЕВ И НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ В ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ: ИСТОРИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ.

Аннотация: В данной статье проанализированы процессы восстановления национальных обычаем и ценностей в первые годы после обретения независимости Республики Узбекистан. Древние традиции, религиозные праздники, национальная одежда, обряды и обычаи, забытые или запрещённые в советский период, начали возрождаться с обретением независимости. В статье раскрыта роль государственной политики в восстановлении духовных ценностей, рассмотрены ежегодные исторические



события, правовые документы, изменения в общественной жизни и их социально-философское значение.

Ключевые слова: Независимость, национальные ценности, обычаи, историческая память, религиозная свобода, культурное наследие, национальная идентичность, государственная политика

The Restoration of Traditions and National Values During the Years of Independence: A Historical Analysis

Annotation: This article analyzes the processes of restoring national customs and values in the early years following the independence of the Republic of Uzbekistan. Ancient traditions, religious holidays, national clothing, ceremonies, and customs that had been forgotten or banned during the Soviet era began to revive after independence. The article highlights the role of state policy in the revival of spiritual values, annual historical events, legal documents, changes in public life, and their socio-philosophical significance.

Keywords: Independence, national values, traditions, historical memory, religious freedom, cultural heritage, national identity, state policy.

O‘zbekiston Respublikasining 1991-yil 1-sentyabrda mustaqillikni qo‘lga kiritishi bilan, milliy va tarixiy sivilizatsiyani qayta tiklash jarayoni yangi bosqchga ko‘tarildi. Bu jarayonning o‘ziga xos xususiyati, avvalo, xalqimizning ko‘p ming yillik urf-odatlari, ma’daniyati,diniy-marosim va ma’naviy qadiryatlar amaliyotining qayta tiklanishi orqali ijtimoiy hayotdagi mavqieni mustahkamlash orqali namoyon bo‘ldi.

O‘tgan asrning 20-yillardan boshlangan ideologik siyosat natejasida, o‘zbek xalqining boy tarixiy merosi, urf-odat va qadryatlar “reksiyon”, yani orqaga tortuvchi unsurlar, “eski jamiyatning qoldig‘I” sifatida qlqin qilinar, diniy qarashlarimiz va marosimlar esa “diniy ekstremizm” yoki fanatizim sifatida siyosiy mafkuraviy taqib ostiga olingan edi. (1,17) Bu holat jamiyatning ijtimoiy qarashlarida milliy o‘lini anglash, tarixiy jarayonlar va uzoq yillik madaniy qadryatlarning evalutsiyasini tan olishga to‘sinqilik qilgan edi. Shu tariqa, sovet mafkurasi milliy o‘zlik, tarixiy meros



va ananaviy dunyoqarshni sinfiy kursh doirasida qayta talqin qilib, sotsialistik mafkurasi asnosida inkor etishga harakat qildi. Natijada, xalqning o‘z tarixiga, urf-odatlari va din asosida qadryatlarga bo‘lgan munosabati shakllanishi suniy ravishda to‘xtatilgan, bu esa jamiyatda uzilishlar, tarixiy xotira va ijtimoiy tushkunlik inqiroziga olib kelgan.

Sovet tuzumi davrida diniy urf-odatlar va mahalliy urf odatlar mafkuraviy bosim asosida zamonaviylik niqobi ostida o‘zining mohiyatini yuqotib borayotgan edi. Misol tariqasida aytishimiz mumkinki 1927-yildan boshlab Qurbon hayiti rasmiy ravishda taqiqlanib, diniy taqvim asosidagi bayramlar kalendar orqali belgilanmas edi. Bu holat sovet mustabit tuzimi davrining o‘z mafkursi nuqtayi nazaridan kelib chiqib har bir xalqning milliy qadryatlarini zamonaviylashtirish jarayoni sifatida taqiqlar qo‘ygan edi.

Mustaqillikning dastlabi kunlaridan boshlab, tarixiy adolatni tiklash, xalqimizga madaniy-milliy o‘zligini qayta anglash, diniy-ma’naviy qadriyatlarni ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida qayta baholash jarayoni boshlangan bo‘lib, bu o‘z navbatida davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Milliy qadriyatlarning siyosiy, ijtimoiy va ma’naviy jihatdan qayta tiklash – tarixiy va madaniy merosni ilmiy asosda o‘rganish, milliy o‘zlikni rivojlantirish, shuningdek, jamiyatda ijtimoiy birdamlik va ma’naviy uyg‘unlikni ta’minlash uchun zaruriy omil sifatida namoyon bo‘ldi.(2,416) Shu sababli, mustaqillikdan keyingi tarixiy davrni ijtimoiy-falsafiy tahlil qilishda “milliy tiklanish” atamasi faqat tarixiy yodgorliklarni qayta ta’mirlash yoki madaniy festivallarni tiklash bilan cheklanmaydi. Aksincha, bu jarayon – ijtimoiy ongda tarixiy xotiraning rekonstruksiysi, jamiyatda o‘zligini anglash mexanizmlarining qayta shakllanishi, urf-odat va an’analarning zamonaviy ijtimoiy strukturalar bilan integratsiyalashuvi jarayonidir. Bu esa, o‘z navbatida, O‘zbekiston tarixida ijtimoiy-madaniy transformatsiya jarayonining yangi bosqichini boshlab bergen muhim ijtimoiy voqelik sifatida tarixda muhrlanadi.

1991 – yildan keying davrda milliy tiklanish siyosati yangi bosqichga qadam qo‘ydi. Prezident Islom Karimov boshchiligidagi milliy qadryatlarni tiklash va ularni



jamiyat hayotiga qayta olib kelish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biriga aylandi. Jumladan:

- 1992-yil 21-mart Navro‘z bayrami davlat miqyosida rasmiy bayram sifatida nishonlanishi boshlandi.
- 1996-yil “o‘zbekiston xalqining tarixiy xotirasini tiklash yili” deb e’lon qilindi. Maskur yil davomida Shohruh Mirzo, Zahiriddin Muhammad Bobur, Temuriylar sulolasi vakllari va boshqa tarixiy shaxslarning nomlari tiklanib, ularning ilmiy merosi o‘rganildi.(3,81)
- 1998-yilda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori bilan diniy bayramlarimiz Qurbon hayiti va Ramazon hayiti rasman dam olish kunlari sifatida belgilandi.(4)

Shuningdek, 1993-yildan boshlab diniy-ma’naviy hayotni qayta tiklash borasida tub islohotlar amalga oshirildi, diniy ta’lim muassasalari — madrasalar va Islom instituti faoliyati qayta tiklandi. Toshkentdagি Mir Arab madrasasi, Ko‘kaldosh madrasasi, Buxorodagi G‘ijduvon madrasasi va boshqa ko‘plab tarixiy obidalar rekonstruksiya qilinib, jamoatchilik ixtiyoriga topshirildi.(5,62) Prezident I.A.Karimov bu jarayonlarni “xalqimizning o‘zligini anglash yo‘lida muqaddas qadamlardan biri” deb baholagan edi. Bu fikr o‘zining tarixiy-siyosiy va mafkuraviy mohiyati jihatidan o‘z tarixiga va qadryatlariga qaytishni bildiradi. Prezident Sh.M. Mirziyoyevning ta’kitlashicha: “manaviyatli jamiyatni qadryatsiz tasvvur qilib bo‘lmaydi”(6,114). Bu yondashuv yangi davr – Yangi o‘zbekistonda qadryatlar faqat o‘tmish yodgorligi emas, balki hozirgi zamon tarqqiyotining ajralmas tayanchi sifatida qaralayotganligini ko‘rsatadi. Shu jumladan mustaqillik yillarida urf-datlar va qadryatlar tiklanibgina qolmay, davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Bu jarayon xalqning o‘zligini anglash, tarixiy xotirani tiklash, manaviy birlashuvni mustahkamlash va barqaror fuqorolik jamiyatni qurushdahal qiluvchi omil bo‘lib xizmat qiladi

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. И.А. Ўзбекистон ўз истиқлол ва тараққиёт йўлида. – Тошкент, 1993. – Б.



2. Каримов Ислом Абдуғаниевич. Ватан равнақи йўлида. – Тошкент: Ўзбекистон, 1995. – 416 б
3. Тошматов Н., Хамидов А. Миллий қадриятлар ва анъаналар. – Тошкент, 2004. – Б. 81
4. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 1998, №5
5. Боқиев X. Ўзбекистонда диний-маърифий ислоҳотлар. – Тошкент, 2003. – Б. 62
6. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент, 2021. – Б. 114